

ZOOLOGIYA FANIDA NOSTANDART TEST VA TOPSHIRIQLARDAN

FOYDALANISH

*JDPI Biologiya o‘qitish
metodikasi ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich magistranti
Jo‘rayeva Lola*

Anotatsiya. Nostandart testlar mazmuni va mohiyati, zoobiologiya fanidan nostandart test tuzish, nostandart test mazmunini tanlashdagi prinsiplar, test topshirig‘iga qo‘yiladigan talablar.

Kalit so‘zlar: *nostandard test, integrativ testlar, adaptiv testlat , mezonli – mo‘ljal olish testlat.*

Аннотация. Содержание и сущность нестандартных тестов, нестандартные тесты по зоологии, принципы отбора нестандартного содержания тестов, требования к тестовым заданиям.

Ключевые слова: *нестандартный тест, интегративный тест, адаптивный тест, эталонный тест.*

Annotation. Content and essence of non-standard tests, non-standard tests in zoology, principles of selection of non-standard test content, requirements for test tasks.

Key words: *non-standard test, integrative test, adaptive test, benchmark test.*

O‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim mazmuniga bog‘liq innovatsion ta’lim texnologiyalarini tanlash, mashg‘ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o‘quv maqsadlarini amalda qo‘llay olishi, talabalarning yosh, psixologik va ergonomic xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil eta olish zarur. Shu maqsadda hozirga zamonaviy amaliy fanlar mutaxassislar oldiga nazariy muammolar, matematik yondashuvlar, model va metodlarni tavsiya etmoqda. Jumladan, ana shunday metodlardan biri test metodidir.

Nostandard testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandard testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandard testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli - mo'ljal olish testlari.

1. Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darjasini bo'yicha o'sib boruvchi, bitiruvchining tayyorgarlik darjasini haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

2. Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondashish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidalni adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o'quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmaida muvaffaqiyatlari qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

3. Mezonli - mo'ljal olish testlari o'quvchilarning umumiyligi tayyorgarlik darjasini, mazkur fanning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mezonli - mo'ljal olish test sinovlari orqali o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan nostandard test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Ma 'lumki, fanlar bo'yicha tuziladigan test topshiriqlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Standart testlar topshiriqlari.


2. Nostandard test topshiriqlari.

Birinchi guruhga mansub test topshiriqlarida bitta topshiriq va to'rtta (ba'zan beshta) javob beriladi.

Yuqoridagi ma'lumotladan foydalanib zoologiya fanidan tuziladigan nostandard test topshiriqlari haqida so'z yuritamiz. Bu kabi test topshiriqlari mazmun va mohiyatiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi.

I guruhga rasmi test topshiriqlarini kiritish mumkin. Bunda zoologiyaga oid rasmlar beriladi va shu rasm asosida topshiriq shakllantiriladi. Masalan:

Quyida berilgan chuchuk suv shillig'ining tashqi tuzilishiga to'g'ri keladigan raqamlarni yozing.



<i>chig'anog'i</i>	
<i>mantiya cheti;</i>	
<i>tanasi;</i>	
<i>paypaslagich;</i>	
<i>ko'zlar;</i>	
<i>bosh;</i>	
<i>nafas teshigi;</i>	
<i>oyoq.</i>	

II guruhga tegishli test topshiriqlarida savollar va javoblarni o'zaro juftlashtirish bo'yicha topshiriq beriladi. Masalan;

Askarida tana qismlari va ularni tuzilishini juftlab yozing.

- | | |
|-----------------------|---|
| a) Ichagi; | 1) ayrim jinsli; |
| b) Jinsiy sistemasi; | 2) tana bo‘ylab o‘tgan bir juft naycha; |
| c) Ayirish sistemasi; | 3) keying qismi rivojlangan; |
| d) Urg‘ochisi dumi; | 4) qorin tomonga egilgan; |
| e) Erkagi dumi; | 5) egilmagan, to‘g‘ri. |

Juftlab yozish javoblari: a-3, b-1, d-2, e-5, f-4.

III guruh topshiriqlarida raqamlangan savollarning javoblarini jadvalga joylashtirish so‘raladi.

Nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari haqida fikr yuritish lozim.

1-prinsip. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi prinsipi. Mazkur prinsip o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

2-printsip. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi prinsipi. Muhimlik prinsipi test topshirig‘i savollariga o‘quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko‘nikmalarni kiritishni talab etadi.

3-prinsip. Mazmun va shakl birligi printsipi. Mazkur printsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

4-prinsip. Test topshiriqlarining mazmunan to‘g‘riligi prinsipi. Test topshiriqlariga o‘quv kursi mazmunidagi obyektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

5-prinsip. Test topshiriqlari mazmunida o‘quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi prinsipi. Mazkur printsip test topshiriqlarini tayyorlashda o‘quv kursi mazmunini to’liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi.

6-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi prinsipi. Mazkur printsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir

bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar, fanning o'quv kursi ta'lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

7-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo'lisi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi.

8-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi prinsipi. Mazkur prinsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim.

9-prinsip. Test topshirig'i mazmunining variativligi prinsipi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish bosqichlariga mos bo'lisi lozim.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

- Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo'yiladi:
- Test topshirig'i mazmunining to'g'riliqi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riliqi;
- Test topshirig'inining savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
- Test topshirig'inining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- O'quvchilarga test topshirig'inining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;
- Ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Bundan tashqari test topshiriqlari Davlat Test Markazi tomonidan belgilangan talablarga javob berishi kerak. Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli o'quv fani mazmunidagi bilimlarni aniqlash va

ularga mos o‘quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘txati

1. Tolipova J. O., G‘ofurov A. T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T. TDPU, 2012.
2. Mavlonov O., Zoologiya. 7-sinf uchun darslik. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” T. 2017.